

## O'ZBEKISTONGA TASHQI DAVLATLARDAN INVESTITSIYALARNI JALB QILISH, QATAR VA ITALIYA MAMLAKATLARI

**Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich**

*Toshkent shaxar Shayxontohur tuman kasb hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi,*

*Osiyo Xalqaro Universiteti Magistri 1-kurs MM4-IQT-22 talabasi*

*Tel:+998998156860 e-mail:jtajiddinov@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Qatar davlati bilan tuzilgan investitsiya shartnomalarida neft-gaz, kimyo, energetika, logistika, uglevodorodlar va boshqa ko'p sohalar o'rin olgan. O'zbekiston bu sohalarni rivojlantirsa kelajakda ko'p daromad olish imkoniyati bor. Italiya Respublikasi yevropa mamlakatlari ichida eng rivojlangan davlatlaridan biri hisoblanadi, uning oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, kimyo va avtomobilsozlik, elektrotexnika sohalarida O'zbekiston uchun investitsiyalar kiritishi juda muhim ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlari:** *Qatar va Italiya davlatlari bilan investitsiya shartnomalari, neft-gaz, kimyo, energetika, qishloq xo'jaligi, avtomobilsozlik, elektrotexnika, oziq-ovqat, madaniyat, ta'lim, sport, Lombardiya, O'zmetkombinat, import-eksport, Turin politexnika universiteti, investitsiya qonunlari.*

Shu yilning 5-6 iyun kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qatar Davlati Amiri shayx bin Hamad Ol Somiy Samarqandga keldi.

Biz Qatarni nafaqat yaqin sharq mintaqasida, balki butun arab –musurmon olamida o'zimizning istiqbolli hamkorimiz sifatida bilamiz. Shu bilan birga so'nggi yillardagi muloqatlarimiz bois munosabatlarimizda katta siljish ketmoqda, -dedi davlatimiz raxbari. Tomonlar o'zaro savdo ko'rsatkichlarini oshirish, qo'shimcha investitsiya loyihalari va savdo shartnomalarni amalga oshirishga tayyor ekanliklarini ta'kidlaydilar.

Qatarning yetakchi kompaniyalari energetika, gaz-kimyo sanoat, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, logistika, turizm va boshqa tarmoqlarda umumiy qiymati 12 milliard dollardan ziyod yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Istiqbolli loyihani qo'llab quvvatlash maqsadida shu yil sentabr oyida O'zbekiston-Qatar investitsiya forumini o'tkazish hamda qo'shma loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish masalasini ko'rib chiqish taklif etildi.

Shu munosabat bilan u ikki davlat o'rtasida ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatishdan manfaatdor tomonlarga o'zaro aloqalar istiqbollari muhokama qilish imkonini yaratish uchun iqtisodiy forum tashkil etishni taklif qildi.

Ekspert har ikki davlat xususiy sektorini tashabbus ko'rsatishga va har ikki tomon uchun jiddiy muzokaralar olib borishga chaqirdi. Kelgusida ikki davlat o'rtasida

to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish, energiya suv ta'minoti, zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq yangi loyihalarga sarmoya kiritishni rag'batlantirish juda muhim.

O'zbekistonning geografik joylashuvi Osiyo bozoriga keng yo'l ochadi. Bu Qatarlik ishbilarmonlar va investorlar uchun Osiyoning yangi bozorlariga kirishi uchun rag'batdir.

2022 yilda O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi Tovar ayirboshlash hajmi 4,82 million dollarni tashkil qildi. Shundan 4,32 million dollari import mahsulotidir. O'zbekiston uglevodorodlarni qidirish va qazib olishni kengaytirish, neft va gaz sanoatini rivojlantirish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga intilmoqda.

Uglevodlar istemoli o'sishini hisobga olgan holda, O'zbekiston 2019-2030 yillarda ushbu sohaga qariyb 9,8 milliard dollar sarmoya kiritishni rejalashtirmoqda. Ularning 3,5 milliard dollari razvedka ishlariga, 6,3 milliard dollari tabiiy gaz qazib olishni ko'paytirishga yo'naltiriladi, bu esa Qatarlik investorlarning O'zbekistonning rivojlanayotgan iqtisodiyotiga qo'shilishi imkonini beradi. Bundan tashqari, sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, Qatarining yetakchi kompaniyalari va moliya institutlarini jalb qilgan holda O'zbekiston infratuzilmasini modernizatsiya qilish mamlakatimiz o'rtasidagi o'zaro manfaatdorlikni oshirish va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi, deb hisoblaydi ekspert.

Suhbatda Qatarining mintaqadagi yetekchi ro'li, kuchli iqtisodiyoti milliy kapital manbalarini diversifikatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish siyosatini yo'lga qo'yish, sanoatga sarmoya kiritish, diversifikatsiyalangan iqtisodiyotni yaratish borasidagi sa'y-harakatlari yuqori baholandi.

U, Shuningdek, Qatar noyob rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bilan birga, inosn kapitalini rivojlantirishga oqilona yondashayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy huzurida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan 15 ta ikki tomonlama hujjatni imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Shuningdek, tashqi ishlar va adliya vazirliklari o'rtasidagi 2023-2025 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturlari hamda ustuvor investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun qo'shma platforma yaratish to'g'risida kelishuv imzolandi.

Qatar Davlati arab mamlakatlari ichida iqtisodiyoti ko'p taraflama rivojlangan mamlakat hisoblanadi. O'zbekiston bilan tuzilgan shatnomalar juda muhim hisoblanib, ayniqsa neft gaz sanoatida yuqori salohiyatga ega, biz bu mamlakatdan tajriba olishimiz va o'zimizda rivojlantirishimiz zarur, ko'p tomonlama tuzilgan investitsiyalar kelajakda o'z mevasini berishiga ishonamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarellaning taklifiga binoan 7-9 iyun kunlari rasmiy tashrif bilan Rim shaxrida bo'ldi.

Prezidentimiz Italiyaga tashrifining ilk kunida Birlashgan Millatlar tashkilotining Oziq ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) raisi Syu Dunyuy bilan uchrashdi. O'zbekiston Respublikasi ushbu tashkilotga 2001 yilda a'zo bo'lgan va 2014 yilda tashkilotning yurtimizdagi vakolatxonasini ochgan. O'sha yili sheriklik kelishuvi imzolangan. Tashrif chog'ida ko'rilgan asosiy masalalar agrar tarmoqlarini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat xavfsizligini taminlash bo'yicha hamkorlik bo'ldi.

Globalashuv davrida oziq-ovqat xavfsizligiga nisbatan tahdidlar oshmoqda. Bu esa o'z-o'zidan tashkilot bilan yaqinlikni taqozo etadi. Shuningdek, 2020-2030 yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishni qo'llab quvvatlash uchun mamlakatimiz va FAO o'rtasida imzolangan doiraviy dasturni to'la-to'kis amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

So'ngi yillarda O'zbekiston va FAO o'rtasidagi hamkorlik misli ko'rilmagan darajada jadallashmoqda. Birgalikdagi sa'y-harakatlar natijasida FAOning O'zbekistondagi portfeli umumiy qiymat 65 million dollarda 59 ta milliy, mintaqaviy va global loyihani tashkil etmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Italiyaga rasmiy tashrifining ikkinchi kunida Milan shahrida Lombardiya gubernatori Attilio Fontana bilan uchrashuv o'tkazdi. Italiya shimolida joylashgan Lombardiya mamlakatning aholi soni va maydoni bo'yicha eng yirik hamda iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. U respublika yalpi ichki mahsulotining 22 foizini ta'minlaydi va bu ko'rsatkich bo'yicha Yevropa Ittifoqida beshinchi o'rinni egallaydi.

“O'zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati quvvatini oshirishga Italiyadan investorlar yordam beradi. Shuningdek, Toshkent yaqinida qurilish materiallari va qishloq xo'jaligi texnikasi zavodlarini tashkil etish taklif etildi. Italiyalik sarmoyadorlar Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuvda bir qancha yirik sarmoyaviy loyihalarni taklif qildi.

Davlat rahbari 9-iyun kuni Milanda Italiyaning 25 nafar yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashdi. O'zbekistonning boy tabiiy resurslari va malakali kadrlari Italiyaning texnologik va sanoat salohiyati bilan uyg'unlashgani qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va uchinchi davlatlarga eksport qilish imkoniyatlarini ochib berishini alohida ta'kidladi.

Davlat raxbarining fikricha, energetika, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati, qishloq xo'jaligi, kimyo va avtomobilsozlik, elektrotexnika sohaları ikki tomonlama hamkorlik uchun eng istiqbolli yo'nalishdir. O'z navbatiga, Italiyalik tadbirkorlar O'zbekistonda gaz taqsimlash tizimini va Toshkent shahridagi elektr taqsimlash tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda Toshkent IESni texnologik qayta jihozlash bo'yicha takliflarini bildirdi.

O'tgan yilda O'zbekiston hududlarining Lombardiya bilan Tovar ayirboshlash hajmi 83 foizga oshdi. Aprel oyida milan va Toshkent o'rtasidagi aviatnovlar qayta tiklandi. Hududning Pietro Fiorentini, Terranova, Danieli, Fin opera kabi yetakchi kompaniyalari bilan mustahkam sheriklik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston prezidenti qo'shma savdo va investitsiya loyihalari portfelini kengaytirish, Italiyaning ilg'or texnologiya va bitimlarini O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlariga yanada keng jalb qilish muhimligini ta'kidladi. Tadbirlar davomida 9 milliard yevrolik shartnomalar imzolandi. Shuningdek, tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2023-2024 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi hamda 2026 yilga qadar madaniy almashinuvlar dasturi qabul qilindi.

Italiya davlati Yevropa mamlakatlari ichida iqtisodiyoti eng yuqori rivojlangan davlatlar ichida yetakchilardan hisoblanadi, uning oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, turizm, neft-gaz va boshqa ko'p sohalari rivojlangan, O'zbekiston uchun bunday mamlakat bilan investitsiya loyihalari boy'icha tuzilgan shartnomalar yuqori ma'noga ega hamda daromadli hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekistonda Italiya investotrlari juda kerak hisoblanadi.

Ayniqsa qishloq xo'jaligi bo'yicha tuzilgan investitsiya shartnomalari amalda bajarish va ko'p tajriba almashish kerak. Bizning mamlakatimizda rivojlanishi va daromadi jihatidan kam va zaif bo'lgan tarmoqlarni Italiya tajribasidan foydalanib investitsiyalarni jalb qilmoqdamiz.

Kelajakda qo'yilgan rejalarimiz quyidagilardan iborat:

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish.

Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish. 2026-yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish.

Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSH dollarga teng investitsiya jalb etish.

Respublika xududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, jumladan Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax viloyatining Hindiston biznes doiralari investitsiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish.

Surxondaryo viloyatida "Investorlarga ko'mak markazi", Navoiy viloyatida Navoiy kon-Metallurgiya kombinati tomonidan "Biznesga ko'maklashish markazi" va Toshkent shahrida "Ilg'or loyihalar va injiniring markazi" va har bir tumanda "Innovatsiya va texnologiya markazlari" tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatish.

Toshkent shaxrida har yili "Toshkent xalqaro investitsiya forumi"ni o'tkazib borish.

Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi besh yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga yetkazish.

Mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarini va ulardagi ulushlarini (aksiyalarni), shu jumladan fond birjasi orqali xususiyashtirish.

Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish.

Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish.

Eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish.

Mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada oshirish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoni bilan tasdiqlangan"2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi"(3-bob,4-yo'nalish).Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.06.01.20.19 y,06/18/5611/2430-son.

3. Mirzaev A. T. Evaluation of innovation capacity resource components in effective management of recreational clusters on the basis of econometric analysis // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2020. – pp.131-137. <https://doi.org/10.36713/epra4790>

4. Мирзаев А. Т. Совершенствование системы электронного бронирования как часть цифровизации управленческой деятельности туристско-рекреационных предприятий // Бюллетень науки и практики. 2020.Т.6.№8. С.165-172. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/57/14>

5. Мирзаев А.Т. Оценка использования рекреационных возможностей на рынке туристических услуг // Региональная экономика: теория и практика. – 2019. – Т. 17, № 5. – С. 990 – 1002. <https://doi.org/10.24891/re.17.5.990>

6. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2017-yil 7-fevral.

7. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi".-T.: "O'zbekiston", 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.: "O'zbekiston", 2017.
9. Vaxobov.A.V, Tadjibayeva.D.A, Xajibakiyev Sh.X. "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar"-T.: Baktria-press. 2015.
10. Investitsiya to'g'risidagi qonun. 2019 y 25- dekabr. № O'RQ-598
11. Internet ma'lumotlari. 2023y.